



XORIJIY MAMLAKATLAR QONUNCHILIGIDA ADVOKAT JAVOBGARLIGI INSTITUTINING O'ZIGA XOS JIHATLARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL

Jo'rayeva Marjonaxon Zuhridin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Advokatlik faoliyati yo‘nalishi” magistranti

E-mail: jurayevamarjona545@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20182583>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-may 2026 yil
Ma'qullandi: 11-may 2026 yil
Nashr qilindi: 13-may 2026 yil

KEY WORDS

advokat javobgarligi, qiyosiy
huquqshunoslik, intizomiy
javobgarlik, kasbiy sug'urta,
Rossiya qonunchiligi, Germaniya
qonunchiligi, Qozog'iston
qonunchiligi, xorijiy tajriba,
advokatura islohoti.

ABSTRACT

Mazkur maqolada xorijiy rivojlangan davlatlar — Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi — qonunchiligida advokat javobgarligi institutining o'ziga xos jihatlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu davlatlarda advokat javobgarligini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar, intizomiy javobgarlik mexanizmlari, kasbiy sug'urta institutlari hamda javobgarlik turlarining farqli jihatlari ochib berilgan. Romano-german va anglo-sakson huquq tizimlarining advokat javobgarligiga yondashuvlari solishtirilgan. Tadqiqot natijasida O'zbekiston Respublikasida advokat javobgarligi institutini takomillashtirish uchun xorijiy ilg'or tajribadan foydalanish imkoniyatlari bayon etilgan.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari sharoitida advokatura institutining huquqiy tizimdagi o'рни va funksional ahamiyati tobora kengayib bormoqda. Prezidentning 2026-yildagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston-2030” strategiyasida advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.¹ Shu nuqtayi nazardan, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash, odil sudlovni ta'minlashda advokatlik faoliyatining ahamiyati alohida o'rin tutadi.

Binobarin, advokatlik faoliyatining samaradorligi nafaqat advokatlarning huquqiy maqomi, balki ularning zimmasiga yuklatilgan kasbiy majburiyatlar va mazkur majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik institutining qanchalik mukammal huquqiy asosga ega ekanligi bilan ham bevosita bog'liqdir. Biroq amaliyot ko'rsatmoqdaki, bu sohada jiddiy tizimli muammolar mavjud. Prezidentning 2018-yilgi “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonida **advokatura hanuzgacha odamlar ishonchini qozongan huquqni himoya qiluvchi institutga aylana olmaganligi, sifatli yuridik yordam ko'rsatilishiga halal**

berayotgan qator omillar mavjudligi qayd etilib, xususan, bilimi yetmasligi, kasbiy majburiyatlariga vijdotsiz munosabatda bo'lishi sababli advokatlarning tomonidan kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodini buzish hollarining ko'pligi alohida ta'kidlangan.² Shu nuqtayi nazardan, advokat javobgarligi institutini O'zbekiston sharoitida takomillashtirish uchun xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish ilmiy zaruriyat hisoblanadi. Shu maqsadda romano-german va anglo-sakson huquq tizimlarining asosiy namoyandalaridan Rossiya, Germaniya, shuningdek O'zbekistonga yaqin davlatlardan biri Qozog'iston tajribasi chuqur tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi — Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi va Qozog'iston Respublikasida advokat javobgarligi institutini tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlarni qiyosiy tahlil qilish hamda O'zbekiston uchun qo'llash mumkin bo'lgan ilg'or tajribalarni aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

- Rossiya Federatsiyasida advokat javobgarligini tartibga soluvchi normativ bazani tahlil qilish;
- Germaniya tajribasida intizomiy javobgarlik va kasbiy sug'urta institutlarini o'rganish;
- Qozog'iston qonunchiligida kasbiy xatolar tushunchasi va sug'urta mexanizmini tahlil qilish;
- Xorijiy tajribadan O'zbekiston uchun foydalanish imkoniyatlarini belgilash.

Tadqiqot savollari:

1. Xorijiy davlatlar qonunchiligida advokat javobgarligi qanday normalarda mustahkamlangan?
2. Romano-german va anglo-sakson huquq tizimlarida advokat javobgarligiga yondashuv qanday farqlanadi?
3. Kasbiy javobgarlik sug'urtasi xorijiy davlatlarda qanday tartibda joriy etilgan?
4. Xorijiy tajribaning qaysi elementlari O'zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilinishi mumkin?

TADDIQOT MATERIALI VA METODLARI

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy, tahliliy va tizimli metodlardan foydalanildi. Normativ manba sifatida Rossiya Federatsiyasining 2002-yilda qabul qilingan "Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi Federal qonuni [3], Germaniya Federativ Respublikasining 1959-yilda qabul qilingan Bundesrechtsanwaltsordnung (BRAO) — Federal advokatlar to'g'risidagi Qonuni [4] hamda 1996-yilda qabul qilingan Berufsordnung für Rechtsanwälte (BORA) — advokatlar uchun kasbiy xulq-atvor qoidalari [5], shuningdek Qozog'iston Respublikasining 2018-yilgi "Advokatlik faoliyati va yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni [6] tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlar qatorida R.G.Melnichenko, A.G.Kucherena, G.M.Reznik va boshqa olimlarning ilmiy ishlari metodologik asos sifatida qo'llanildi.

Rossiya Federatsiyasida advokat javobgarligi

Rossiyada advokatura instituti 2002-yilda qabul qilingan "Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi Federal qonuni bilan tartibga solinadi [3]. Ushbu Qonunning 7-moddasida advokatning majburiyatlari belgilangan bo'lib, ushbu majburiyatlarni bajarmagan advokat javobgarlikka tortiladi: o'z professional majburiyatlarini

bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun advokat ushbu Federal qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi. Qonunning 17-moddasiga muvofiq, advokat maqomi advokat a'zo bo'lgan advokatlar palatasining kengashining qarori bilan, malaka komissiyasining xulosasi asosida quyidagi asoslarda tugatilishi mumkin: advokat tomonidan o'zining kasbiy majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik; advokat tomonidan advokatlar kasbiy etikasi kodeksi normalarini buzish [7].

Rossiya qonunchiligida o'ziga xos jihat shundaki, advokatlarning kasbiy javobgarlik xavfi majburiy sug'urta qilinadi. Qonunning 19-moddasiga muvofiq, advokat mijoz bilan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma shartlarini buzganlik uchun o'zining professional mulkiy javobgarlik xavfini sug'urta qiladi [8]. Sug'urta tizimining asosiy foydasi shundaki, u advokatning kasbiy faoliyati bilan bog'liq katta moliyaviy xavflarni kamaytiradi va zarar yetkazilgan taqdirda mijozga real kompensatsiya to'lanishini kafolatlaydi. Bundan tashqari, Rossiya qonunchiligi advokat mustaqilligini maxsus kafolat bilan mustahkamlagan. Xuddi shu moddaga muvofiq, advokat advokatlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida bildirgan fikri uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas, biroq mazkur cheklovlar ushbu federal qonunga muvofiq advokatning ishonch bildiruvchi oldidagi fuqarolik-huquqiy javobgarligiga tadbiiq etilmaydi. Ushbu norma orqali advokat mustaqilligi himoya qilinmoqda, shu bilan birga mijoz huquqlari ham saqlanib qolinmoqda.

Rossiya qonunchiligining yana bir o'ziga xos jihati — natijaga bog'liq haq to'lash mexanizmidir. Qonunning 25-moddasiga muvofiq, shartnomaga ishonch bildiruvchi tomonidan to'lanadigan haq miqdori advokat tomonidan ko'rsatilgan yuridik yordam natijasiga bog'liq bo'lishi haqidagi shart kiritilishi mumkin, jinoiy va ma'muriy huquqbuzarliklar bundan mustasno. Bu norma orqali advokat mas'uliyatini oshirish va uning noprofessionaligi oqibatida keladigan zarar xavfini kamaytirish ko'zda tutilgan.

Germaniyada advokat javobgarligi. Germaniya Federativ Respublikasida advokatlik faoliyatining normativ-huquqiy asosini 1959-yilda qabul qilingan va keyinchalik qayta tahrir qilingan Bundesrechtsanwaltsordnung (BRAO) — Federal advokatlar to'g'risidagi Qonun tashkil etadi [4]. Bundan tashqari, 1996-yilda alohida qabul qilingan Berufsordnung für Rechtsanwälte (BORA) — advokatlar uchun kasbiy xulq-atvor qoidalari — intizomiy javobgarlikni yanada batafsil tartibga soladi [5]. BRAO-ning 51-moddasiga muvofiq, advokat o'z kasbiy faoliyati natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar bo'yicha javobgarlik xavflarini qoplash maqsadida kasbiy javobgarlik sug'urtasini tuzishi shart [4]. Rossiya tajribasidek, Germaniyada ham bu sug'urta majburiy hisoblanadi. Biroq Germaniyada minimal sug'urta miqdori 250 000 evro sifatida belgilab qo'yilgan — bu zarar ko'rgan mijozning haqiqiy himoyasini ta'minlaydigan eng samarali mexanizm sifatida e'tirof etiladi. BRAO-ning 113-moddasida majburiyatni buzganlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, agar advokat ushbu qonunda yoki advokatlarning kasb odobi qoidalarida belgilangan vazifalarni o'z aybi bilan buzsa, unga nisbatan advokatlar sudi intizomiy chora qo'llaydi. Moddaning 2-qismiga ko'ra, advokatning kasbiy faoliyatidan tashqaridagi xatti-harakatlari ham javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin. Agar u noqonuniy ish qilsa yoki jarima bilan jazolanadigam qoidabuzarlik sodir etsa va bu holat fuqarolarning advokatga bo'lgan ishonchiga putur yetkazsa, bu ham kasbiy qoidabuzarlik deb baholanadi. Ushbu yondashuv advokatlik kasbining yuqori darajadagi ishonch va axloqiy mas'uliyatga asoslanganligini, advokat har qanday vaziyatda ham qonuniylik va halollik tamoyillariga rioya etishi shart ekanligini ko'rsatadi.

Germaniya qonunchiligining eng e'tiborli xususiyatlaridan biri — javobgarlik muddatlarining aniq belgilanganligidir. BRAO-ning 115-moddasiga muvofiq, kasbiy qoidabuzarliklar bo'yicha javobgarlik muddati 5 yilni tashkil etadi. Ayrim og'irroq holatlarda bu muddat uzayishi mumkin. Bu qoida advokatning kasbiy javobgarligining ahamiyati qanchalik katta ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Shuningdek, BRAO-ning 118-moddasida advokatlik sudi yurituv bilan jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik ishlari yurituv o'rtasidagi nisbat belgilangan: agar advokatga nisbatan jinoyat ishi yoki ma'muriy jazo qo'zg'atilgan bo'lsa, unga nisbatan advokatlik sudi yurituv qo'zg'atilishi mumkin, biroq bunday yurituv jinoyat ishi yoki ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha ish yakunlangunga qadar to'xtatib turilishi lozim. Bu norma "ne bis in idem" tamoyilining amaliy tatbiqini ta'minlaydi.

Qozog'istonda advokat javobgarligi. O'zbekistonga yaqin davlatlardan biri Qozog'iston Respublikasida advokatlik faoliyati 2018-yilgi "Advokatlik faoliyati va yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi [6]. Ushbu qonunning 3-moddasida yuridik yordam ko'rsatish tamoyillari belgilangan bo'lib, unga ko'ra, yuridik yordam kasbiy va axloqiy xulq-atvor normalariga rioya qilib, yuridik yordam ko'rsatish standartlariga rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Qonunning 4-moddasiga ko'ra, yuridik yordam ko'rsatish tamoyillariga rioya qilmaslik ushbu qonunda va Qozog'iston Respublikasining boshqa qonunlarida belgilangan javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan. Qozog'iston qonunchiligining o'ziga xos jihati — kasbiy xatolar tushunchasining aniq me'yoriy ta'rifiga ega ekanligidir. Qonunning 36-moddasiga muvofiq, advokat shartnomaga muvofiq, yuridik yordam ko'rsatish natijasida kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha o'zining kasbiy javobgarligini sug'urtalashi shart [9]. Yuridik yordam ko'rsatilishi natijasida uchinchi shaxslarning mulkiy manfaatlariga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik yuzaga kelish fakti sug'urta hodisasi hisoblanadi. Qozog'iston qonunchiligida kasbiy xatolar quyidagilar sifatida belgilangan: protsessual muddatlarni o'tkazib yuborish; hujjatlarni noto'g'ri rasmiylashtirish; yuridik yordam ko'rsatilayotgan shaxsni huquqiy harakatlar oqibatlari haqida xabardor qilmaslik; mijozdan olingan hujjatlarning yo'qotilishi yoki shikastlanishi; advokatlik sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda oshkor qilish.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI. Uchta davlat qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish natijasida bir qator muhim umumiy va farqli xususiyatlar aniqlandi. Umumiy xususiyatlar qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, barcha uchala davlatda ham kasbiy javobgarlik sug'urtasi majburiy sifatida belgilangan. Biroq ushbu mexanizm amaliyotda turlicha tadbiq etiladi: Germaniyada minimal sug'urta miqdori aniq ko'rsatilgan (250 000 evro), Rossiyada sug'urta shartlari normativ darajada belgilangan, Qozog'istonda esa sug'urta hodisasi tushunchasi aniq ta'riflangan.

Ikkinchidan, barcha uchala davlatda ham intizomiy javobgarlik asosiy nazorat mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Advokatlar o'zini-o'zi boshqaruv organlari — advokatlar palatasi va malaka komissiyalari — intizomiy ish yuritishning markaziy bo'g'ini hisoblanadi.

Uchinchidan, kasbiy etika qoidalari intizomiy javobgarlikning asosiy normativ manbai sifatida qo'llaniladi. Rossiyada Advokatlar kasb etikasi kodeksi, Germaniyada BORA, Qozog'istonda esa xulq-atvor standartlari alohida normativ hujjatlarda mustahkamlangan.

Farqli xususiyatlar qatorida esa quyidagilarni ko'rsatish mumkin. Germaniya tajribasida advokatning kasbiy faoliyatidan tashqaridagi xatti-harakatlari ham intizomiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkinligi alohida ta'kidlangan — bu Rossiya va Qozog'iston qonunchiligida

bunday aniqlikda mustahkamlanmagan. Shuningdek, Germaniyada javobgarlik muddatlari (5 yil) normativ darajada belgilangan, Rossiyada esa natijaga bog'liq haq to'lash mexanizmi normativ tartibga olingan. Qozog'istonda kasbiy xatolar tushunchasi maxsus ro'yxat orqali aniqlanishi esa ushbu davlatning o'ziga xos yondashuvi hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasi Advokatlar Federatsiyasi Kengashining advokatlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiya raisi G.M.Reznikning fikricha, ma'muriy javobgarlikni qonunchilik asosida tartibga solish advokatning huquqiy maqomini inobatga olishi, ayniqsa, ko'pincha kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarlikni alohida ajratib ko'rsatishi lozim. Shuningdek, advokat tomonidan ana shunday huquqbuzarlik sodir etilganiga shubha tug'ilgan hollarda ma'muriy ish yuritish tugatilishi, materiallar esa advokatni intizomiy javobgarlikka tortish uchun advokatlar palatasiga yuborilishi kerak [10]. Yuqoridagi qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda advokat javobgarligi institutining samaradorligi to'rt asosiy elementga asoslanadi: intizomiy organning mustaqilligi; kasbiy javobgarlik sug'urtasining amalda majburiyligi va minimal miqdorlarning belgilanishi; shikoyatlar ko'rib chiqish jarayonining oshkorligi va protsessual kafolatlar; kasbiy xatolar va javobgarlik standartlarining qonunda aniq belgilanishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligini taqqoslama tahlil qilish advokat javobgarligi institutini O'zbekistonda takomillashtirish uchun aniq yo'nalishlarni belgilashga imkon berdi. Chet el tajribasini o'rganish asosida quyidagi uch taklif ilgari suriladi.

1-taklif. Kasbiy javobgarlikni qonunchilikda mustahkamlash (Rossiya va Qozog'iston tajribasiga asosan) Rossiya Federatsiyasining 63-FZ-sonli Federal qonunining 7-moddasi va Qozog'iston Respublikasining 2018-yilgi Qonunining 4-moddasi tajribasiga tayanib, O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuniga advokat kasbiy majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda aniq javobgarlikka tortilishi mumkinligi haqidagi norma kiritilishi lozim.

2-taklif. Majburiy kasbiy javobgarlik sug'urtasini joriy etish (Germaniya tajribasiga asosan) Germaniya Federativ Respublikasining BRAO qonunining 51-moddasi modelidan kelib chiqib, O'zbekiston qonunchiligiga har bir advokat uchun majburiy kasbiy javobgarlik sug'urtasini joriy etish tavsiya etiladi. Germaniya tajribasida minimal sug'urta miqdori 250 000 evro sifatida belgilangan bo'lib, bu zarar ko'rgan mijozning real kompensatsiya olishini kafolatlaydi. O'zbekiston sharoitida sug'urtaning minimal miqdorini mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilash, sug'urta shartlari va hodisa tushunchalarini esa Qozog'iston tajribasidek normativ ravishda aniq qilib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday mexanizm mijozlarning huquqiy himoyasini kafolatlash bilan birga, advokatlarning kasbiy mas'uliyatini ham yanada oshiradi.

3-taklif. Intizomiy javobgarlik muddatlarini uzaytirish va intizomiy organlar mustaqilligini ta'minlash (Germaniya tajribasiga asosan) Germaniya BRAO qonunining 115-moddasida kasbiy qoidabuzarliklar bo'yicha javobgarlik muddati 5 yil etib belgilangan. O'zbekiston qonunchiligida esa hozirda bu muddat atigi 6 oy (moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha 2 yil) ni tashkil etadi. Bunday qisqa muddat advokat tomonidan sodir etilgan kasbiy qoidabuzarliklarning ko'pchiligi amalda jazolanmasdan qolishiga olib kelmoqda. Germaniya tajribasiga asoslanib, intizomiy javobgarlikka tortish muddatini kamida 12 oyga (yoki og'ir hollarda 3 yilga) uzaytirish tavsiya etiladi. Uzurli sabablarga ko'ra intizomiy ish yuritishni tiklash amaliyotini kiritish lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan uchta taklif bevosita chet el tajribasiga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ularni O'zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilish advokat javobgarligi institutini tubdan takomillashtirishga va milliy huquq tizimining xalqaro standartlarga yaqinlashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5441-son Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/-29626>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilgi "Qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish va tartibga solish yukini kamaytirish to'g'risida"gi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.11.2025-y.
3. "Rossiya Federatsiyasida advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida" Federal qonun, 2002-yil 31-may, 63-FZ-son. URL: <https://consultant.ru>
4. Bundesrechtsanwaltsordnung (BRAO), 1959-yil 1-avgust (keyingi o'zgartirishlar bilan). URL: <https://gesetze-im-internet.de/brao/>
5. Berufsordnung für Rechtsanwälte (BORA), 1996-yil. URL: <https://brak.de>
6. Qozog'iston Respublikasining "Advokatlik faoliyati va yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni, 2018-yil 5-iyul. URL: <https://adilet.zan.kz>
7. RF FA to'g'risidagi qonunning 17-moddasiga sharh // Grishin A.V. Distsiplinarnaya otvetstvennost advokata: osnovaniya i poryadok privilecheniya. — M.: Yuridicheskiy tsentr Press, 2014.
8. "Rossiya Federatsiyasida advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida" Federal qonunning 19-moddasi, 63-FZ.
9. Qozog'iston Respublikasining "Advokatlik faoliyati va yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonunining 36-moddasi.
10. Reznik G.M. Advokatlarga ma'muriy javobgarlikdan qisman immunitet zarur // Advokatskaya gazeta. — 2012. — № 9. URL: <https://fparf.ru>
11. Melnichenko R.G. Professional'naya otvetstvennost' advokata: monografiya. — Volgograd, 2010. — 168 s.
12. Kucherena A.G. Advokatura v usloviyakh sudebno-pravovoy reformy v Rossii: monografiya. — M.: YURKOMPANI, 2009. — 434 s.
13. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni, 1996-yil 27-dekabr (2024-yil 7-fevral holatida). URL: <https://lex.uz/uz/docs/-54503>